

VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-hilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2021- yil yanvar-sentabr)

	mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	8 268,8	119,8	100,0
<i>shu jumladan:</i> xizmat turlari bo‘yicha			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	430,5	112,0	5,2
Moliyaviy xizmatlar	1 400,2	128,0	16,9
Transport xizmati	1 537,7	118,7	18,6
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari			
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	172,7	109,3	2,1
Savdo xizmatlari	2 670,8	111,9	32,3
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	221,2	126,1	2,7
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	357,1	135,4	4,3
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	173,6	143,5	2,1
Ijara va prokat xizmatlari	186,8	124,2	2,2
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	245,0	126,4	3,0
Boshqa shaxsiy xizmatlar	542,5	128,4	6,6
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	101,9	124,6	1,2
Boshqa turdagи xizmatlar	228,8	125,5	2,8

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (32,3 %), transport xizmatlari (18,5 %), moliyaviy xizmatlar (18,6 %), moliyaviy xizmatlar (16,9 %) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,2 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,1 %) tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan xizmatlar tarkibi, (% da)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 8 268,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 111,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 32,3 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 118,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 18,6 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar 128,0 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 16,9 % ni tashkil etdi.


Shaxsiy xizmatlari 128,4 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa axborotlashtirish xizmati 112,0 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,2 % ni tashkil etdi.


Ta'lim sohasidagi xizmatlari 135,4 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,3 % ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi


(jami xajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
 (2021- yil yanvar-sentabr, mlrd.so 'm)



**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan
 xizmatlar hajmi aholi jon boshiga**
 (2021- yil yanvar-sentabr, ming so 'm)




Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Pop tumaniga 578,3 mlrd. so'm (122,5 %) va Norin tumanida 369,7 mlrd. so'm (122,2 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (4 955,4 ming so'm), Mingbuloq tumanida (2 727,6 ming so'm) va Pop tumanida (2 579,4 ming so'm) qayd etildi.

**Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2021- yil yanvar-sentabr)**

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so'm	2020- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	8 268,8	119,8	100,0	2 860,4	117,4
Namangan sh.	3 225,5	119,6	39,0	4 955,4	116,0
Mingbuloq	352,9	121,4	4,3	2 727,6	118,8
Kosonsoy	426,0	119,5	5,1	1 985,2	117,0
Namangan t.	443,7	121,9	5,4	2 447,4	121,0
Norin	369,7	122,2	4,5	2 210,1	120,0
Pop	578,3	122,5	7,0	2 579,4	120,3
To'raqo'rg'on	531,0	118,1	6,4	2 308,8	116,6
Uychi	454,4	117,6	5,5	2 076,8	115,0
Uchqo'rg'on	447,5	117,6	5,4	2 543,8	115,5
Chortoq	482,5	120,3	5,8	2 368,4	118,0
Chust	528,6	120,0	6,4	1 949,7	118,0
Yangiqo'rg'on	428,7	118,8	5,2	1 917,2	116,3

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida alohida xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



■ 2020- yil yanvar-sentabr

■ 2021- yil yanvar-sentabr

Eng yuqori o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (143,5 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (135,4 %), moliyaviy xizmatlar (128,0 %), shahsiy xizmatlar (128,0 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (92,6 %) egallaydi.


Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 7,1 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 77,9 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 16,5 % ga yetdi.

**2021- yil yanvar-sentabr oylarida transport turlari bo‘yicha
transport xizmatlari tarkibi, % da**



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiyl savdo xizmatlari hajmida 5,6 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan xolda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va matosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar